

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'mni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabadshot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy-topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi	299
Д. О. Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiat.....	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



УО'К: 94(575)

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA AGRAR SOHANI
RIVOJLANТИRILISHI VA UNING AHOLI TURMUSH TARZIGA TA'SIRI**

**РАЗВИТИЕ АГРАРНОЙ СФЕРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ
ВОЙНЫ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ**

**THE DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR IN UZBEKISTAN DURING
THE WAR AND ITS IMPACT ON THE WAY OF LIFE OF PEOPLE**

Xodjamberdiyev Xurshidbek Egamberdiyevich

Andijon davlat universiteti, t.f.b.f.d., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada urush yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlanтиrishi va o'zbek xalqini urushda g'alabani ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi ko'rsatilgan. Shuningdek, sovet hukumatining o'zining siyosiy va iqtisodiy hokimiyatini yanada mustahkamlashga urinishi, hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohani barcha jahbalarida mavqeini kuchaytirib borganligi o'rganilan. Qishloq xo'jaligi zimmasiga yuksak vazifalar yuklangan bois, uning mehnat resurslari, moddiy imkoniyatlari juda kamayib ketganligi, irrigatsiya tizimini rivojlanishi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni g'oyat qisqa vaqt ichida harbiy izga o'tkazish, paxta yakkahokimligi sababli qishloq xo'jaligi tarmog'i pahta yetishtirishga moslashitirilganligi ham ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье показано развитие аграрной сферы Узбекистана в годы войны и достойный вклад узбекского народа в обеспечение победы в войне. Также было проанализировано, что советское правительство пыталось еще больше улучшить свою политическую и экономическую власть в жизни общества. Поскольку на сельское хозяйство возложены трудные обязанности, его трудовые ресурсы, материальные возможности стали очень проблемными. Развитие ирригационной системы. Выявлено, что при переходе сельскохозяйственного производства на военные рельсы за очень короткое время, из-за монокультуры хлопка, сельскохозяйственная семья была адаптирована для выращивания хлопка-сырца.

Abstract

This article shows the development of the agricultural sector of Uzbekistan during the war and the worthy contribution of the Uzbek people to ensuring victory in the war. It was also analyzed that the Soviet government was trying to further improve its political and economic power in the life of society. Since agriculture has difficult responsibilities, its labor resources and material capabilities have become very problematic. Development of the irrigation system. It was revealed that during the transition of agricultural production to military rails in a very short time, due to the monoculture of cotton, the agricultural network was adapted for the cultivation of raw cotton.

Kalit so'zlar: Ikkinchiji jahon urushi, kommunistik mafkura, partiya, irrigatsiya, agrar siyosat, paxta yakkahokimligi, mehnat resurslari, harbiy sanoat, kolxoz.

Ключевые слова: вторая мировая война, коммунистическая идеология, партия, ирригация, аграрная политика, монокультура хлопка, трудовые ресурсы, военная промышленность, колхоз.

Key words: World War II, communist ideology, party, irrigation, agrarian policy, cotton monoculture, labor resources, military industry, collective farm.

KIRISH

O'zbek xalqi Ikkinchiji jahon urush davrida nafaqat jang maydonlarida, balki front ortida matonat va qahramonlik ko'rsatib, g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida ta'kidlanganidek, "El-yurtimizni buyuk g'alabaga qo'shgan ulkan hissasi hali to'liq ochib berilmagan desak, bu ham adolatdan bo'ladi" [1]. Ushbu davrga e'tibor qaratilishi avalo, urush yillarida olijanob xalqimizning jasorati, insoniyligi, vatandarvarligini, el-yurt tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyorligi, kelajak avlod uchun ibrat bo'lib xizmat qilishi kerak. Qolaversa, ayrim h olatlarda tarixni sohtalashtirish, ya'ni tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatish, g'arb olimlari tomonidan tarixiy faktlarni noto'g'ri talqin qilinishi kuzatilmogda.

TARIX

O'zbek xalqining Ikkinci jahon urushidagi g'alabaga qo'shgan hissasi to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ilmiy-badiiy asarlar yaratilmoqda, hujjatli va badiiy filmlar suratga olinmoqda, maktab va oliy ta'lilda darslarda o'tilmoqda, bu urush oqibatlari xalqimiz tarixidan xech qachon o'chmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mavzuga doir tadqiqotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, mustaqillikning ilk yillarda masalaga kommunistik mafkura ruhida yondashgan tadqiqotlar ham uchraydi. Jumladan, N.Ochilov respublikadagi irrigatsiya va melioratsiya ishlarini 1946-1964-yillar davriy chegarasida tadqiq qilgan. Asar garchand sovetcha mafkurada yozilgan bo'lsada, unda Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Surxon-Sherobod, Qarshi cho'llarining sug'orilishi, o'zlashtirishi, sug'orish tizimiga mablag'lar sarflash, sug'orish kadrлari tayyorlashning borishi masalalarini birlamchi manbalar va davriy matbuot materiallari yordamida ochib bergen. Kitobda muallif irrigatsiya-melioratsiya qurilishi va uning texnikaviy bazasini mustahkamlashda partiya organlarining "g'amxo'rligi"ga ijobjiy baho bergen[2].

Aynan istiqlol davridan qishloq xo'jaligining taraqqiyoti, shu jumladan paxtachilik tarixi masalasi A.Razzoqov, R.Aminovalarning tadqiqotlaridan alohida o'rinn oldi[3]. A.Razzoqov sovet hukumatining paxtachilikda ekin maydonlarini kengaytirish va suv inshootlarini takomillashtirishga e'tibor borganligi, paxta yakkahokimligi siyosati natijasida sug'oriladigan maydonlar hajmini ortib borganligi, 1950-yillardan boshlab O'zbekistonning ko'pgina hududlarida irrigatsiya ishlarining avj olganligi 1956-1985 yillar davri misolida yoritilgan. Asarda respublika irrigatsiyasining 1970-1980-yillardagi ahvoli, sug'orish kanallari va nasos stansiyalari barpo etilishi, ulardan sug'orish tizimida foydalanimishi to'g'risida ma'lumotlar deyarli kam. R. Aminova asarida sovet davrida bevosita qishloq xo'jaligi sohasida o'rnatilgan agrar siyosat, o'zbek qishloqlari hayoti va turmushida bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan keyingi davrdagi holati, yer-suv islohotining o'tkazilishi, paxtachilikning moddiy-texnik bazasini mustahkamlanishi masalalari aks ettirilgan.

R.Berikboyev, H.Tirov, J.Xonazarov Mirzacho'lni o'zlashtirishga bag'ishlangan asarlarida kommunistik partianing roliga orttirib baho bergen [4.11]. Jumladan, R.Berikboyev "Partiyamizning XX syezzidan keyin Mirzacho'lga yurish yanada kuchaydi" deya bir tomonlama, H.Tirov esa Mirzacho'lni o'zlashtirish ishiga aynan 1956-yildan kirishiganligi va o'zlashtirish maqsadida "yangi tuzilgan to'qqizta ma'muriy rayon hududida 18 ta sovxozi va 126 ta kolxoz mavjudligi"ni e'tirof etadi. J.Xonazarov maqolasida Mirzacho'ldagi qo'riq yerkarni o'zlashtirish, uni o'zlashtirishga sarflangan kapital mablag'larning ortib borganligi, qo'riq hududda barpo etilgan suv inshootlari to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Biroq ushbu mualliflar ham masalaga sovetcha ruhida yondashgan.

A.Abdullayevning monografiyası va dissertatsiyasida[5] O'zbekistonning sovet hukumatining paxta xomashyo bazasiga aylantirilishi, qishloq xo'jaligini majburiy kollektivlashtirish siyosati va "paxta mustaqilligi"ga erishish, 1941-1985-yillarda respublikada paxta yakkahokimligining yanada kuchaytirilishi va mazkur siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga tegishlicha baho berilgan. Bundan tashqari, muallif tadqiqotlaridan paxta yakkahokimligi siyosatining aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishi, "paxta ishi" bo'yicha qatag'on qilingan yurtdoshlar qismati, taqdiri o'rinn olgan. Uning tadqiqotlarida Ikkinci jahon urushi va urushdan keyingi yillarda yangi yerkarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlariga qisqa to'xtalib o'tilgan.

M.Sariboyevning doktorlik dissertatsiyasida sovet hokimiyatining 1917-1990-yillarda Qoraqalpog'istonda yuritgan paxta yakkahokimligi siyosati va uning oqibatlari qayd etilgan[6]. Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog'istonda sovet hukumati yillarda irrigatsiya sohasini taraqqiy ettirishiga ham tegishlicha baho berilgan. Ammo unda sug'orish tarixi O'zbekiston bo'yicha tadqiq qilinmagan. Z.Ashirboyaning dissertatsiya ishida[7] sovet hukumatining ko'chirish siyosati ta'sirida Mirzacho'ldagi yangi o'zlashtirilgan yerkarga Andijon va boshqa viloyatlardan ko'chirilgan oilalar sonining ortib borganligi birlamchi manbalar hamda davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilingan.

Bir guruh xorij adabiyotlarida va maqolalarda O'zbekistonning agrar tarixi va qisman irrigatsiyasi tarixiga o'rinn ajratilgan. Respublikaning agrar sektori va sug'orish tizimi tarixini o'rganishda xorij tadqiqotchi olimlaridan T.Petr, K.Grifin, J.Tyurman, D.Kandiotti va M.Spur tadqiqotlari[8] alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlarda sovet hukumatining O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirgan agrar siyosati mohiyati ochib berilgan, shuningdek, paxta yakkahokimligi natijasida sug'oriladigan yerkarning kengayib borishi natijasida Orol fojasini kelib chiqqanligi jarayonlariga holisona baho berilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab, to 1943 yil noyabrgacha O'zbekistondan 818 ming kishi harakatdagi armiyaga safarbar qilindi, ularning asosiy qismini qishloq aholisini tashkil etar edi[9,35]. Bundan tashqari, respublikadan 155 ming kishi mehnat frontiga olib ketildi [10,35-36]. Safarbarlik davomida qishloqda ko'pchilik erkaklar, mehnatga qobiliyatli dehkonlar, malakali mutaxassislar, traktorchilar, mexaniklar, kombaynchilar soni keskin qisqardi, qishloq xo'jaligidagi ishlar davlat va jamoa xo'jaliklaridagi barcha ishlovchilarning beshdan to'rt qismini tashkil etgan xotin-qizlar, o'smirlar va keksalar zimmasiga tushdi. Natijada 1942-1943-yillarda paxta yetishtirish va uni yig'ib-terib olish ishlarida xotin-qizlar soni 20 foizga, qishloq xo'jaligida esa keksalar soni 47 ming kishiga ko'paydi[11,38-39].

1941-yil 17-noyabrda qabul qilingan VKP(b) MQ va SSSR XKSning qo'shma qarorida Ittifoq miqyosida yangi murakkab sharoitlarda qishloq xo'jaligi oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalar belgilab berildi. Qarorda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan frontni ta'minlashda don, texnika ekinlari va sabzavotlar yalpi hosilini ko'paytirishda Ural, Sibir, O'rta Osiyo va Qozog'istonning alohida ahamiyati ko'rsatildi[12,189]. Urush yillarda O'zbekiston dexxonlari qand lavlagi, kungaboqr kabi oziq-ovqat ekinlari, zig'ir va kanop kabi texnika ekinlarini yetishtirishni o'zlashtirdilar, makkajo'xori, kunjut ekishni ko'paytirdilar. Samarkand, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida ko'pgina yerlar qand lavlagi yetishtirishga ajratildi[13].

Agrar sohada ishchi kuchi yetishmasligidan tashqari mineral o'g'itlar ham kamaydi, boshqa respublikalardan zarur o'g'itlarning keltirilishi kamayib ketganligi oqibatida 1942-yilda ekin ekladigan 52 ming hektar yer o'g'itlanmadidi[14]. Urush sharoiti, og'ir axvol o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadidi. Masalan, 1941-1942-yillarda traktor va mashinalar asosiy qismini frontga olib ketilishi bois, qishloq xo'jaligidagi asosiy ishlar qo'lda bajariladigan bo'lib, qishloq mehnatkashlari uchun mehnat normalari bir necha barobar ortdi. Agar 1940-yilda har bir otga o'rta hisobda ishlov beriladigan 4,4 hektar yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 1941-yilda bu ko'rsatkich 6,5 hektarni tashkil etdi[15,129]. 1941-yil mexanizator kombayinchilarining umumiy soni 2775 kishiga yoki o'n barobarga kamaydi [16,103]. Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq mehnatkashlari mehnatda jasorat ko'rsatdilar. Ayniqsa, erkaklar o'rniga ishlayotgan xotin-qizlarning faoliyati yanada kuchaydi. Chunonchi, Toshkent oblasti Qibray rayonidan Sh.Bozixonova va R.Egamnazarovalar kunlik ish rejasini 250-300 foizga bajardilar. Yangiyo'l rayonidan Z.Akromova bir kunda 300-400 kg paxta terib ko'pmingchilar tashabbusini boshlab berdi. Rayonda ularning soni 1300 kishini tashkil qildi[17]. Shuningdek, keksalar ham fidokorona mehnat qilib ish normasini orttirib bajardilar. Farg'ona oblastidan 60 yoshli M.Nurimbetov bir kunlik ish rejasini 2,5-5 barobarga[18], Xorazm oblastidan 665 kishi rejalarini bir necha barobar orttirib bajarganlar [19].

Umuman, 1941-yil ayrim zvenolar, brigadalar va kolxozlardan tashqari, rayon va oblastlar mehnatkashlari ham paxta hosilini ko'paytirishda faoliyik ko'rsatdilar. Qoraqalpog'istonda paxta hosili 1941-yilda 1940-yilga nisbatan 3,53 sentnerga, Xorazmda 3,1, Buxoroda 2,14 sentnerga oshdi. Jizzax, Kosonsoy, Narpay, Shovot, Qarshi kabi rayonlarda bu ko'rsatkich 1,5-2 barobarga ko'paydi. Ba'zi xo'jaliklar har gektardan 40 sentnergacha paxta hosili olishga muvaffaq bo'lismi, ayrim brigada va zvenolar undan ham oshirib yuborishdi[20]. Toshkent oblasti Chinoz rayonidan Sherq'ozi Umarov brigadasi 38 sentner o'miga 55,1 sentnerdan [21,66], Samarqand oblasti Narpay rayonidan To'ra Jo'rayev va N.Abdullayev brigadalari 30 sentner o'miga 40,6 sentnerdan paxta hosili oldilar [22,121-122].

Qishloq mehnatkashlarining fidokorona mehnatlari tufayli 1941-yili 15-dekabrgacha har gektardan 17,7 sentnerdan hosil ko'tarilib, davlatga 1646 ming tonna paxta xom ashyosi topshirildi. Shu yili O'zbekiston paxta hosildorligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi [23,50]. G'allakorlar ham 4819,4 ming sentner yoki 1940-yilga nisbatan davlatga 221,7 ming sentnerdan ortiq don topshirdilar. Sholikorlar 2207 ming sentner sholi, pillakorlar 12 ming tonna pilla topshirib, yillik rejani bajardilar [24,9-10]. Chorvachilikda ham bir qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Davlatga go'sht topshirish 108,3 foizga, sut 153,4, tuxum 165,5, don 105,5, qorako'l teri topshirish 117,7 foizga bajarildi[25,5].

1942-1943-yillarda paxtachilik keskin orqaga ketdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Birinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni g'oyat qisqa vaqt ichida harbiy izga o'tkazishdag'i bir qator omillar ancha qiyin kechdi. Chunki markazning ko'pdan buyon paxta yakkahokimligini mustahkamlab kelayotganligi sababli qishloq xo'jaligi tarmogi paxta yetishtirishga moslashtirilgan edi. G'alla Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan olib kelinishi natijasida don ekinlari yetishtirish

TARIX

ikkinci darajadagi ahamiyatga ega bo'lib, aholini g'alla bilan ta'minlash masalasini qo'yilishi bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Xususan, buning uchun zarur texnika, mutaxassislar yetishmas, ilgarigi tajribalar ham unutilgan edi. Shunga qaramasdan, 1942-yilning o'zida 2009,3 ming gektarga g'alla ekildi. Bu 1941-yilga nisbatan 503,8 ming gektar ko'p bo'lib yoki 33,5 marta ortiq edi [26,136]. Buning ustiga respublikada 62 ming gektar yerga qand lavlagi ham ekildi [27,21]. Yuqoridagi qiyinchiliklarga qaramasdan, 1942-yili g'alla yetishtirish 100,5 foizga bajarildi yoki 1941 yilga nisbatan 152 ming tonna ortiq g'alla yetishtirildi. Faqat 1944-yili g'alla rejasি bajarilmadi [28,69].

Ikkinchidan, 1942-1943-yillarda qishloq xo'jaligi zimmasiga og'ir vazifalar yuklangani bois, uning mehnat resurslari, moddiy imkoniyatlari juda kamayib ketdi. Tajribali xodimlar, mutaxassislar, tadbirdor raislar, brigada va zveno boshliqlari frontga va front orqasidagi sanoat korxonalariga jo'natilishi qiyinchiliklarni yanada chuqurlashtirdi. Faqat 1942-1943-yillarda mehnatga layoqatli aholi soni 653 ming kishiga yoki 20 foizga kamaydi. Buning natijasida bitta ishga yaroqli dehqonga 1940-yildagi 1,5 gektar o'miga 1943-yilda 3 gektar yer to'g'ri keldi [29,36].

Uchinchidan, qishloq xo'jalagining moddiy texnika bazasi ham ancha kuchsizlanib qoldi. Yangi texnika yetkazib berish butunlay to'xtatildi, ehtiyyot qismlar, yoqilg'i, mineral o'g'it keltirish keskin kamaydi. 1941-1943-yillarda traktorlarning soni 19028 tadan 17681 taga, yuk avtomashinalari esa 831 tadan 485 taga kamaydi, shu jumladan, agar respublika mexanizatorlar soni 1941-yilda 27888 nafar bo'lsa, 1942-yilda – 2775, 1943-yilda esa 1861 nafarni tashkil etdi [30,9-11].

Urush yillari traktorlar soni 15 foizga, ularning quvvati 18 foizga, yuk mashinalari deyarli 80 foizga kamaydi. Qolgan traktorlar juda eskirgan va ehtiyyot qismlar yetishmasligi natijasida ularning ko'pi ishdan chiqqan edi. 1943-yil bahorgi yer haydash mavsumida 3497 ta traktor ishga chiqmadidi. Agar 1941-yilda o'rtacha 4431 gektar yer traktor bilan haydalgan bo'lsa, 1943-yilda esa 256 gektar yer haydaldi, kombaynlarda g'alla o'rish 50 foizga kamaydi. Natijada yer haydash, ekin ekish, ishllov ishlari ko'proq ish hayvonlariga yuklatildi. Vaholanki, ularning soni ham 1943 yilda 30 foizga, transport vositalari 23 foizga kamaygan edi [31,13].

To'rtinchidan, ekinlar hosildorligini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mineral o'g'it respublikaga kam keltirildi. Agar 1940-yilda paxtachilik uchun 484,8 ming tonna o'g'it keltirilgan bo'lsa, 1942-yilda 147 ming tonna, 1943-yilda 14,7 ming tonnani tashkil etdi. Natijada paxtakorlar 1941-yildagi 110 kg turli o'g'it o'miga, 1943-yili gektariga 6 kg o'g'it soldi, xolos [32,14]. Shu tufayli paxta hosildorligi 1941-yildagi 17,7 sentnerdan 1942-yili 9,5 sentnerga, 1943-yilda esa 7,1 sentnerga tushib qoldi [33]. 1942-1943-yillarda paxta xom ashyosi uch barobarga kamaydi.

Beshinchidan, qand lavlagi yetishtirishning majburiy tiqishtirilishi ham qishloq xo'jaligi ekinlarining maydonini o'zgartirishga olib keldi. Endi bu ekinni parvarish qilish uchun ichki imkoniyat va mehnat resurslaridan tashqari katta mablag' sarf etilishi zarur edi. Shunga qaramasdan, urush yillari respublikada o'rtacha 73 ming gektarga qand lavlagi ekilib [34,67-68], o'rtacha 162 sentnerdan hosil olindi [35]. Toshkent viloyatida 1945-yili 147 ming tonna qand lavlagi yetishtirilib, bu respublika bo'yicha qand lavlagining 23,4 foizini tashkil etdi [36,2].

Oltinchidan, paxta yetishtirishni kamayib ketishidagi yana bir omillardan biri yerlarni kuzgi-qishki yuvishni yaxshi o'tkazilmaganligi ham bo'ldi. Chunki yerlarning sho'rini o'z vaqtida yuvilmasa, chigit unib chiqishi va o'sishiga ta'sir qiladi. Hammasi bo'lib, 1942-1943-yillarda kuzgi qishki suv 70 foiz dalalarga qo'yilgan, shu jumladan, yerlar sho'rini yuvish 48 foizni tashkil etdi [37]. Yerning to'liq haydalmaganligi, urug'ni ekish oldidan yaxshi dorilanmaganligi, chopiq yoki agrotexnik ishlarni pasayib ketishini ta'kidlash mumkin.

Yettingchidan, front va harbiy sanoat uchun safarbarlikdan tashqari 1942-1943-yillarda qishloq mehnatkashlarini kanallar, suv omborlari va irrigatsiya inshootlari qurilishiga ko'plab jalb etish ham paxtachilikka ma'lum darajada ta'sir etdi. Faqat 1942-yili Katta va Janubiy Farg'on, Dushanba-Qoratoq, Shimoliy Toshkent, So'x-Shohimardon, Kosonsoy-Chust, Yuqori Uchqo'rg'on va boshqa kanallar qurilishi, shuningdek, Farxod GESi va Kattaqo'rg'on suv omborlaridagi ishlarni bajarish uchun ko'p minglab qishloq ahli safarbar etildi. 1941-1943-yillarda bu ishlarning bajarilishi oqibatida 348 ming gektar yer qo'shimcha tarzda o'zlashtirildi [38,6-13].

Sakkizinchidan, qishloq mehnatkashlari urushning birinchi oylaridayoq mudofaa fondiga 2589 sentner don, 1803 sentner go'sht, 325 sentner quruq meva, 430 sentner sabzavot topshirdilar. 1941-yil noyabr oyida, faqat shimoli-g'arbiy front jangchilariga 4055 sentner qishloq xo'jalik mahsuloti

tuhfa qilindi. O'zbekiston dehqonlari 1942-yil 12-13-fevralda frontga 141 vagon oziq-ovqat va kiyim kechakni sovg'a qilishdi, Leningradga 60 vagon quruq meva, 100 vagon guruch yuborildi.

Bundan tashqari, kolxozchilar urush yillari o'zları tejagan mablag'lardan harbiy texnikalar qurish uchun pul to'pladilar. 1942-yilning dekabr oyidagina 260 mln. so'm to'planib, jangovar mashinalar kolonnasi sotib olindi va frontga yuborildi. 1943-yil noyabrida tank va samolyot kolonnalari uchun 307 mln. so'm jamg'arilib, davlat bankiga topshirildi [39].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'rganilgan davrda paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish pasaydi, chorva mahsulotlarini kolxozi yerlari va shaxsiy xo'jaliklarda yetishtirish ham keskin kamaydi. Kolxozlarda go'sht 1945-yilda 1940-yildagi 80 ming tonnadan 47,7 ming tonnaga, sut 213,3 ming tonnadan 193,6 ming tonnaga, jun 11,3 ming tonnadan 5,5 ming tonnaga, qorako'l teri 1115,3 ming donadan 488,4 ming donaga tushib qoldi. Kartoshka, uzum, sabzavot, rezavor mevalar va poliz ekinlari yetishtirish ham sezilarli darajada kamayib ketdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 9 май – Хотира ва қадрлаш кунига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи. 2018 йил 9 май. – <https://president.uz/uz/lists/view/1706>.
2. Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация ишлари (1946-1964). -Тошкент: Фан, 1991. -104 б.
3. Раззоков А.А. Сув ва ҳаёт. – Тошкент: Мехнат, 1991.-152 б.
4. Берикбоев Р. Мирзачўлнинг истиқболи. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК бирлашган нашири, 1969. – Б. 11.
5. Абдуллаев А.Н. Пахта яккаҳокимлиги: оқибат ва сабоқлар (1917-1991 й.й.). - Тошкент: Истиқлол, 2006. – 136 б.; Шу муаллиф. Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлиги ва унинг оқибатлари: Тарих фан докт.... дисс. -Тошкент, 2010. – 309 б.
6. Сарыбаев М.К. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917-1990 гг.): Автореф.дисс. ... докт. истор.наук. - Ташкент, 2008. – 47 с.
7. Аширбоева З.К. XIX аср охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши: Тарих фан. номз..дисс. – Тошкент, 2008. – 136 б.
8. Petr T. ed. Inland fisheries under the impact of irrigated agriculture: Central Asia. Fisheries Circular -№. 894. -Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1995.-62 р.; Шу муаллиф. Inland fishery enhancements.-Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1998.-463 р.; Griffin K. Social Policy and Economic Transformation in Uzbekistan. -Turin: ILO and UNDP, 1996.-172 р.; Thurman J.M. The «Command-Administrative» System in Cotton Farming in Uzbekistan 1920s to present. Indiana University Papers on Inner Asia.- No. 32.- Bloomington: Indiana University, 1999.-48 р.; Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper No.11, Geneva: UNRISD, 2002.-79 р.; Шу муаллиф. Post-Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan.-Geneva: UNRISD, 2004.-28 р.; Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements.-Geneva: UNRISD, 2004.-46 р.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви (ЎзР ПАА), 58-фонд, 19-рўйхат, 86а-иш, 35-варак.
- 10.ЎзР ПАА. 35-36-вараклар.
- 11.ЎзР ПАА. 13-рўйхат, 22-иш, 38-39-вараклар.
- 12.Сайдолимов С., Бобожонов Ҳ., Пўлатова С., ва бошқ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. Масъул муҳаррирлар: С.Сайдолимов, Ҳ.Бобожонов, К.Саъдуллаев – Тошкент: Zamin nashr, 2024. – Б. 189.
- 13.Муаллифлар гурухи. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Akademiya, 2010. – Б. 370-371.
- 14.Раззоков А. Ўзбекистонда пахтчилик тарихи. (Ўтмиш ва хозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 97.
- 15.ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 191-иш, 129-варак.
- 16.ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 112-иш, 103-варак.

TARIX

17. "Правда Востока", 1941 г. 16 сентября.
18. ЎзР ПАА, 58-фонд, 17-рўйхат, 305-иш, 172-варак.
19. ЎзР ПАА, 58-фонд, 17-рўйхат, 305-иш, 173-варак.
20. Новым успехам сельского хозяйства Узбекистана. // "Правда Востока", 1941 г. 9 декабря.
21. Тошкент ВДА, 1-фонд, 6-рўйхат, 27-иш, 66-варак.
22. Самарқанд ВДА, 1-фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 121-122-вараклар.
23. ЎзР ПАА, 58-фонд, 27-рўйхат, 5-иш, 50-варак.
24. ЎзР ПДА, 58-фонд, 18-рўйхат, 6-иш, 9-10-вараклар.
25. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), Р.837-фонд, 32-рўйхат, 3012-иш, 5-варак.
26. ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 188-иш, 136-варак.
27. ЎзР ПАА, 124-иш, 21-варак.
28. ЎзР ПАА, 58-фонд, 23-рўйхат, 59-иш, 69-варак.
29. ЎзР ПАА, 58-фонд, 19-рўйхат, 86-иш, 36-варак.
30. ЎзР ПАА, 58-фонд, 20-рўйхат, 948-иш, 9-11-вараклар.
31. ЎзР ПАА, 58-фонд, 155-рўйхат, 43-иш, 13-варак.
32. ЎзР ПАА, 58-фонд, 155-рўйхат, 43-иш, 14-варак.
33. Хлопководство Узбекистана за 50 лет. – С. 24.
34. ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 39-иш, 67-68-вараклар.
35. ЎзР ПАА, 58-фонд, 17-рўйхат, 124-иш, 109-варак.
36. Тошкент ВДА, 1-фонд, 255-рўйхат, 152-иш, 2-варак.
37. Итоги года: успехи и ущербы. // "Правда Востока", 1944 г. 3 января.
38. ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 7-иш, 6-13-вараклар.
39. ЎзР ПАА, 58-фонд, 18-рўйхат, 1016-иш, 13-варак; Ўз МА, Р.837-фонд, 32-рўйхат, 3009-иш, 27-варак.